


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**SAID AHMAD'S "QORA KO'Z MAJNUN" STORY: SEMANTIC AND STYLISTIC FEATURES***Zarifa Sulaymonova**Doctoral Candidate, JDPU**Jizzakh, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: semantics, homonym, synonym, antonym, metaphor, simile, metonymy, synecdoche.

Abstract: The article examines the artistic language, semantic tropes, and stylistic aspects of Said Ahmad's short story "Qora ko'z majnun". Along with analyzing the writer's mastery of word choice and the use of linguistic units in revealing the characters' personalities, the study explores the core elements defining the author's style—including folk lexicon, the prevalence of dialogic speech, and realistic depictions.

Received: 21.04.26

Accepted: 22.04.26

Published: 23.04.26

SAID AHMADNING "QORA KO 'Z MAJNUN" HIKOYASI: SEMANTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI*Zarifa Sulaymonova**JDPU tayanch doktoranti**Jizzax, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: semantika, omonim, sinonim, antonim, metafora, o'xshatish, metonimiya, sinekdoxa.

Annotatsiya: Maqolada Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasining badiiy tili, undagi ko'chimlar (semantika) va uslubiy (stilistika) jihatlarini tadqiq etilgan. Adibning so'z qo'llashdagi mahorati, asar qahramonlari xarakterini ochishda til birliklaridan foydalanish usullari tahlil qilinish bilan birga yozuvchining uslubini belgilovchi asosiy jihatlar - xalqona leksika, dialogik nutq ustunligi, realistik tasvirlar ham o'rganilgan.

РАССКАЗ САИДА АХМАДА "QORA KO'Z MAJNUN": СЕМАНТИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ*Зарифа Сулаймонова**Докторантка JDPU**Джизак, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: семантика, омоним, синоним, антоним, метафора, сравнение, метонимия, синекдоха.

Аннотация: В статье исследуются художественный язык, семантические тропы (косвенные значения) и стилистические аспекты рассказа Саида Ахмада «Qorako‘z majnun» («Черноглазый безумец»). Наряду с анализом мастерства писателя в словоупотреблении и использовании языковых единиц для раскрытия характеров персонажей, изучаются основные черты, определяющие стиль автора: народная лексика, преобладание диалогической речи и реалистичность описаний.

Kirish. Said Ahmad o‘zbek adabiyotida o‘z maktabiga ega adibdir. Uning hikoyachilik mahorati hamda asarlari tilining soddaligi, xalq tiliga yaqinligi va ayni paytda falsafiy teranligi bilan ajralib turadi. Said Ahmadning kichik janrdagi asarlari o‘zining kompozitsion pishiqligi va lisoniy qurilishining mukammalligi bilan adabiyotshunoslikda munosib o‘ringa ega.

Xususan, adibning “Qorako‘z majnun” hikoyasi urushdan keyingi davr insonlarining turmush tarzi, ichki kechinmalari, sog‘ich va vafodorlik tuyg‘ularini o‘zida mujassamlashtirgani bilan qiymatlidir. Asarda “vafo” tushunchasi shunchaki quruq ta’rif emas, balki jonli badiiy tasvirlar, emotsional bo‘yoqdor so‘zlar va xalqona iboralar orqali namoyon bo‘ladi.

Mavzuning dolzarbligi: Tilshunoslikda badiiy matnning lingvistik va semantik-stilistik tahlili, yozuvchining individual uslubini namoyon qiluvchi semantik birliklarni aniqlash ustivor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Said Ahmadning so‘z qo‘llash mahorati badiiy nutqning taraqqiyot bosqichlarini va so‘zning estetik imkoniyatlarini o‘rganishga yordam beradi

Tadqiqotning obyekti va vazifalari: Ushbu maqolada “Qorako‘z majnun” hikoyasining semantik-stilistik qurilishi tadqiqot obyekti qilib olingan. Tadqiqotning asosiy vazifasi – yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan troplar (o‘xshatish, метафора, jonlantirish) va leksik vositalar (sinonim, antonim, omonim) badiiy matndagi funktsional-stilistik vazifalarni, personajlarning ichki kechinmalarini, asar g‘oyasini ochishdagi ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek adibning xalqona tildan qay darajada foydalangani va matnning ekspressivligini oshirish usullari asoslab beriladi.

Asosiy qism. Trop deb bir narsaning nomini, belgisini boshqasiga ko‘chirish yoki nutqda so‘z va iboralarning ko‘chma ma’noda ishlatilishiga aytiladi. Qandaydir xususiyati bilan bir-biriga yaqin ikki shaxsni, tushunchani, narsani, hodisani va ularning belgisini qiyos qilish, o‘xshatish tropga asos qilib olinadi. [1] “Qorako‘z majnun” hikoyasida qo‘llanilgan troplardan biri o‘xshatishdir.

O‘xshatish – bunda ikki predmet yoki voqea-hodisaning biri orqali ikkinchisining belgisi, mohiyati to‘laroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatiladi. O‘xshatish quyidagi tushunchalar orqali ifodalanadi.

- O‘xshatilgan predmet
- O‘xshatiladigan narsa
- O‘xshatish asosi (belgisi)
- O‘xshatish vositasi

Shuningdek, kabi, xuddi, misoli, singari, teng, aynan so‘zlari va –dek, -day, -simon, -larcha va boshqa qo‘shimchalar o‘xshatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. [1] Masalan, “Baxti ochilmay, guldek umri xazon bo‘layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishtaginaning yo‘lini och, deb Allohga iltijo qildi”[2] ushbu parchada Qumrining umri-o‘xshatilgan predmet, gul-o‘xshatiladigan narsa, xazon bo‘lish-o‘xshatish asosi, -dek qo‘shimchasi o‘xshatish vositasi hisoblanadi. Said Ahmad “Qorako‘z majnun” hikoyasida –dek qo‘shimchali o‘xshatish vositasidan keng foydalangan. Masalan, “Hovlining yarmiga yaqin joyga tangadek oftab tushurmaydigan qari tut barglari sarg‘aya boshlagan” [2] ushbu gapda adib oftobni tangaga o‘xshatgan va asos sifatida tanganing hajmi va shaklini olgan. “Qurigan shoxiga bahorda ilinib qolgan varrakning qamish qovurg‘alari skeletdek bo‘lib turibdi” [2] Adib bu o‘rinda varrakning qamishdan tayyorlanadigan asosini skeletga o‘xshatgan hamda varrak asosining (karkasining) yaqqol ko‘rinib turishini o‘xshatishga asos qilib olgan. “Faqat uzun latta dumi shamolda ilondek to‘lg‘onadi”[2] mazkur gapda esa dum ilonga o‘xshatilgan va “to‘lg‘onish” so‘zi o‘xshatish asosi hisoblanadi. “Kichkinagina, belida belbog‘dek ikkita biri qora, biri jigarrang chizigi bor”[2] yozuvchi bu o‘rinda belbog‘ning shaklan uzunligini asos qilib chiziqqa o‘xshatgan bo‘lsa, “Qarib, mushtdekkina bo‘lib qolgan onasini dast ko‘tarib ayvonga olib chiqdi”[2] gapida esa onaning tanasini hajm jihatidan mushtga o‘xshatilgan. “Ko‘cha betidagi uy ostonasida tinmay akkillayotgan kalamushdek kuchukni tuproqqa qorishtirib bulg‘adi”[2] ushbu parchada ham hajm o‘xshatish asosi qilib olinib, kuchuk kalamushga o‘xshatilgan. “Qorako‘z ilib oldi-yu quvonchdan hovlini shamoldek aylanib chiqdi”[2] bu parchada aylanish harakati o‘xshatish asosi qilib olinib, “Qorako‘z” laqabli it shamolga o‘xshatilgan bo‘lsa, “Qorako‘z o‘qdek otilib chiqib ketdi” [2] gapida o‘sha it o‘qqa o‘xshatilgan va o‘xshatish asosi otilib chiqish sanaladi. “Hovlining supradek joyi qorayib qolganini ko‘rib hayron bo‘ldi”[2] adib ushbu parchada hovlining qorayib qolgan joyini supraga o‘xshatgan va shakl va hajmni o‘xshatish belgisi sifatida talqin qilgan.

Metafora-grekcha so‘z bo‘lib, ko‘chim degan ma‘noni bildiradi. Nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo‘yoq berish niyatida narsa va hodisalar o‘rtasida o‘xshashlikka asoslanib, so‘z yoki iboralarni ko‘chma ma‘noda ishlatish metafora deyiladi. [1] Said Ahmad o‘z asarlarida metafora stilistik vositasidan samarali foydalangan. Jumladan, “Qorako‘z majnun” hikoyasida ham bir necha o‘rinlarda metaforaga duch kelishimiz mumkin. Masalan, “-Oyijon-ey, juda qahringiz

qattiq-da” [2] gapdagi qattiq so‘zi leksik jihatdan biror predmetning xil-xususiyatini bildiradi, amma badiiy nutqda mavhum otning xususiyatini ifodalab, metafora hodisasiga uchratilgan. “Uning ko‘ksiga allaqaydan kelib tushgan bir parcha muz kechadan beri erimay, vujud-vujudini qaqshatadi” [2] bu o‘rinda Said Ahmad personajning ruhiy dunyosidagi tushkunlik, salbiy hislarni bir parcha muz metaforasi orqali ifodalagan va bu badiiy nutqning ta’sirchanligini oshirgan. “Buvijon, tashvishlanmang, tog‘amning ishlari “besh”” [2] gapda besh so‘zining bosh ma’nosi sonni (miqdor) bildiradi. Asarda esa metaforik transformatsiyaga uchratilib, muvaffaqiyat, yuqori natija tushunchalarini anglatadi. Said Ahmad mazkur hikoyada metaforaning tana a’zolarining nomi boshqa narsalarga ko‘chirish usulidan keng foydalangan. Masalan, “Qurigan shoxiga bahorda ilinib qolgan varrakning qamish qovurg‘alari skeletdek bo‘lib turibdi” [2] ushbu parchada qovurg‘a so‘zining bosh ma’nosi tana qismi bo‘lib, badiiy nutqda varrakning qamish asosi ma’nosini ifodalab kelgan. “Faqat uzun latta dumi shamolda ilondek to‘lg‘onadi” [2] mazkur gapda adib asl ma’nosi tana a’zosi bo‘lgan dum leksemasini metafora usulida varrakka ko‘chirgan. “Aka-uka, opa-singillari: “Opa, ishlama, tirikchiliging bizning bo‘ynimizda, onamga qara”, deb qo‘yishmadi” [2] bu o‘rinda ham tana qismi bo‘lgan bo‘yin leksemasi ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, mas’uliyat, majburiyat tushunchalarini ifodalagan. “Birovga so‘z bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostana hatlamay uyda muqim o‘tirib qoldi” [2] Said Ahmad ushbu gapdagi “shoxi sindi” iborasini metaforik transformatsiyaga uchratish orqali bosh ma’nosi tana qismi bo‘lgan shox so‘zini kibr, shijoat, g‘urur tushunchalari o‘rnida qo‘llagan hamda qahramonning ruhiy-ijtimoiy holatini mahorat bilan yoritgan. “Har gal ko‘cha boshiga kelganda, albatta, kampir shu so‘zni takrorlaydi.” [2], “Qumrining ko‘ngli bir narsani sezdimi, ko‘cha boshiga yetmay mashinadan tushib qoldi” [2] ushbu gaplarda leksik ma’nosi tana qismi bo‘lgan bosh so‘zi joy, makon ma’nosini bildirib, badiiy nutqning obrazlilikini kuchaytirish uchun xizmat qilgan. “Ko‘cha betidagi uy ostonasida tinmay akkillayotgan kalamushdek kuchukni tuproqqa qorishtirib bulg‘adi” [2] yuqoridagi gapda foydalanilgan bet so‘zi asli odam boshining old qismi ma’nosini bildiradi. [3] Badiiy matnda esa hudud, tomon, qirg‘oq ma’nosini ifodalab, metaforani vujudga keltirgan. Bu metafora badiiy nutqning obrazli, ekspressivligini oshirgan. “Jigarlar kulishni ham, yig‘lashni ham bilmay hayron turib qolishdi” [2] ushbu parchada yozuvchi qarindoshlik munosabatini ifodalashda insonning hayotiy tana a’zosi nomidan foydalanib, personajlar orasidagi emotsional bog‘liqlik va ularning chorasizlik holatini badiiy umumlashtirgan.

“Qorako‘z majnun” hikoyasida jonlantirish stilistik vositasini ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, jonlantirish vositasi orqali o‘simliklar odamlarday so‘zlatiladi. “Qirg‘oqlar zax tortib, ekin-tikin suv so‘ramay qo‘ygan palla” [2] “Sentyabr oyoqlab” birikmasida vaqt kategoriyasiga subyektivlik xususiyati berilib, u oying yakunlanish pallasini stilistik jihatdan jonli tasvirlashga

xizmat qiladi. “Sentyabr oyoqlab, suvlar tiniqqan, ariq tublarida bola-baqra tashlab yuborgan piyolami, choynak qopqog‘imi, qoshiqmi shudoqqina ko‘rinib turibdi” [2]

Said Ahmad “Qorako‘z majnun” hikoyasida asar g‘oyasini, voqea-hodisalar mohiyatini, obrazlarni o‘quvchilarga oson yetkazish, tushunarli bo‘lishi uchun so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlaridan mohirona foydalangan.

Sinonim yunoncha synonymos – bir nomli ya‘ni bir umumiy ma‘noga ega bo‘lgan, qo‘shimcha ma‘no ottenkasi, uslubiy bo‘yog‘i, qo‘llanishdagi xususiyati va shu kabi belgilari bilan farqlanadigan so‘zlar. [4] Sinonim so‘zlar tilning lug‘aviy jihatdan boyluk darajasini ko‘rsatib beruvchi o‘ziga xos vositadir. Tilda ma‘nodosh so‘zlarning ko‘p bo‘lishi tilning estetik vazifasini yanada to‘liq bajara olishini osonlashtiradi. Yozuvchi “Qorako‘z majnun” hikoyasida ma‘nodosh so‘zlardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanganini quyidagi misollar orqali ko‘rishimiz mumkin. “Yaqin ikki oydan beri yo‘qotgan qarddon kishisining ovozi eshitib yig‘layotgandek g‘ingshidi” [2], “Uyquga to‘ymagan odamlarga tong mahali akkilayotgan itning bu qilig‘i malol kelardi” [2] yuqorida berilgan gaplardagi kishi va odam leksemalari o‘zaro ma‘nodoshlikni yuzaga keltirgan. Shuningdek yuqoridagi ikkinchi gapda akkiamoq so‘zi “Bolaxonaga qarab vovullayverdi, vovullayverdi...” [2] gapidagi vovullamoq so‘zi bilan o‘zaro sinonimlikni hosil qiladi. Vovullamoq leksemasi neytral bo‘lsa, akkiamoq leksemasi esa salbiy bo‘yoqdorlikka ega.

“Qarib ketibdi, sochlari to‘kilib, boshining yarmi yalong‘ochlanib qopti” [2], “Sultonimga atab unga kokil qo‘ygandi” [2] ushbu gaplarda esa muallif kokil va soch leksemalarini asarda sinonim sifatida qo‘llash orqali badiiy nutqda takrorlanishlarning oldini olgan. “Keyin cherkov oqsoqoli kelin bilan kuyovga toj kiydirib, nikoh o‘qidi” [2], “Qaynota o‘lgandan so‘ng uning o‘rniga cherkov qo‘riqchisi qilib qo‘yishdi” [2] hikoyadan olingan ushbu gaplarda keyin, so‘ng leksemalari sinonimik xarakterda bo‘lib, vaqt ketma-ketligini bildiradi. Keyin leksemasi stilistik jihatdan ko‘proq so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lsa, so‘ng leksemasi ko‘proq badiiy uslubda ishlatiladi. “Bolalarim haftada bir marta xabar olishsa, yetti kun uyim to‘ladi...” [2] bu o‘ringa adib nutq zerikarli bo‘lmasligi uchun hafta leksemasini yetti kun birikmasi bilan sinonim sifatida qo‘llagan. “Qo‘shni hovlilardan maktabga kelayotgan bolalarning injiqliklari, xarxashalari, onalarining yalinib-yolvorishlari eshilib turardi” [2] ushbu parchada injiqliklari, xarxashalari so‘zlari ma‘nodosh so‘zlar bo‘lib, salbiy bo‘yoqdorlikka ega. Yozuvchi hikoyada lug‘aviy jihatdan sinonim bo‘lmagan so‘zlarni ham matnda ma‘nodosh sifatida mahorat bilan qo‘llagan ya‘ni til birligi sifatida o‘zaro sinonim bo‘lmagan leksemalarni ma‘lum kontekst doirasida sinonimik munosabatga kiritadi.[5] Masalan, “It g‘ingshiydi, ingillaydi” [2] gapdagi “Ingillamoq” so‘zi odatda odamlarga xos bo‘lgan og‘riq, nolish yoki iztirobni bildiradi. “G‘ingshimoq” so‘zi esa ko‘proq hayvonlarga (ayniqsa itlar) xos tovushni bildiradi. Hikoyada itning tovushni ifodalovchi kontekstual sinonimlardir. “Oldinlab ketgan Qorako‘z, qayoqqa yuraylik, degandek kampirga

qaradi” [2], “Qorako‘zning sabri chidamadi. Ildamlab ketdi” [2] bu o‘rinlarda “oldinlab ketmoq” va “ildamlab ketmoq” birikmalarini bir-birining o‘rnida ishlatish mumkin, shuning uchun ushbu birikmalarni kontekstual sinonimlar deyish mumkin. “G‘oyibining hozir bo‘lganidan mast-alast edi. Karaxt edi, baxtiyor edi” [2] adib bu o‘rinda kampirning xursandchiligini mast-alastlik, karaxtlik, baxtiyorlik tushunchalari bilan ifodalab ma‘nodoshlik hosil qilgan va bu sinonimiya orqali badiiy nutqning obrozliligini va ekspressivligini kuchaytirilgan. “U ukalariga, singillariga nima deyishni bilmasdi” [2], “Jigarlar kulishni ham, yig‘lashni ham bilmay hayron turib qolishdi” [2] ushbu parchada jigarlar so‘zi yaqin qarindoshlik nuqtai nazaridan ukalar, singillar so‘zlari kontekstual ma‘nodoshlikni yuzaga keltiradi.

Antonim (yun. anti-qarshi, zid; onyma-nom) qarama-qarshi ma‘noli so‘zlardir. [4] Antonimlar stilistik-semantik vosita sifatida badiiy nutqda keng tarqalgan hamda yozuvchilar o‘z asarlarida undan samarali foydalanadilar. Said Ahmad ham “Qorako‘z majnun” hikoyasida antonim so‘zlar umumli foydalangan. Masalaan, “Na yotishda, na turishda halovat bor” [2] ushbu parchada qo‘llanilgan antonimlar shaxs-narsaning gorizantal va vertikal holatiga nisbatan ishlatiladi hamda ko‘chma ma‘noda kundalik turmush tarzini ifodalaydi. “Bir qulog‘ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik qiladi” [2] bu gapdagi itning qulog‘ini tasvirlash uchun ishlatilgan dikkaytirib va shalpaytirib so‘zlari quloqning tik va egilgan holatini ifodalovchi qarama-qarshi ma‘noli so‘zlardir. “Bu yo‘lning o‘ng yog‘i Chirchiqqa, chap yog‘i Toshkentga olib boradi” [2] ushbu gapdagi o‘ng va chap so‘zlari yo‘nalishga nisbatan qarama-qarshilikni bildiradi. “Qorako‘z erkalanib, irg‘ishlab goh undan o‘zib, goh orqada qolib qulog‘ini qashlaydi” [2] bu o‘rinda yozuvchi kontekstual antonimiyada foydalangan ya‘ni o‘zmoq va orqada qolmoq leksemalari leksik jihatdan antonim emas, lekin badiiy nutqda zidlikni yuzaga chaqargan. “Jigarlar kulishni ham, yig‘lashni ham bilmay hayron turib qolishdi” [2] ushbu misolda yig‘lamoq, kulmoq leksemalari insondagi ijobiy va salbiy hissiyotlarni ifodalashiga ko‘ra qarama-qarshilikni bildiradi. “-O‘zi kelgan, o‘zi ketaveradi” [2] berilgan parchada qo‘llanilgan kelmoq va ketmoq so‘zlari harakatning qarama-qarshi yo‘nalishlarini bildiradi hamda voqea-hodisaning mohiyatini chuqurroq ochib berish uchun xizmat qiladi. “U tong otgandan to kun botguncha hammasining uyiga borardi” [2] bu o‘rinda qo‘llangan tong otishi kunning boshlanish vaqtini bildirsa, kun botishi kunning yakunlanish vaqtini ifodalashiga ko‘ra antonim so‘zlardir. “Unga ergashib uchinchi qavatga chiqdi” [2], “Uyga kirmay qaytib tushdi” [2] berilgan gaplardagi chiqdi va tushdi leksemalari harakatning yuqoriga va pastga yo‘nalganligini bildiruvchi zid ma‘noli so‘zlardir.

Omonim (yun. homos-bir xil; onyma-nom) tallafuzi va yozilishi bir xil birdan ortiq so‘zlardir. [4] Omonim so‘zlar tilning lug‘at boyligini boyitish bilan birga, badiiy matnda o‘ziga xos ma‘no jozibasi va uslubiy jihatdan effekt yaratishga xizmat qiladi. Said Ahmad ham bu xususiyatlardan o‘z asarlarida foydalangan. Xususan, “Qorako‘z majnun” hikoyasida quyidagi

omonim soʻzlarni koʻrishimiz mumkin. “Uchta bolasi bor” [2] gapidagi uch leksemasi miqdorni bildirsa, “Kampir roʻmolining uchi bilan burnini berkitgancha oʻtiribdi” [2] gapidagi uch narsaning eng chetki qismini tushunchasini ifodalaydi. “Ana endi ikki mungligʻ bir-biriga qarab yum-yum yosh toʻkishyapti” [2] bu gapda yozuvchi yosh soʻzini koʻzdan chiqadigan suyuqlik maʼnosida ishlatgan. “Supada yoshi oltmishlardan oshgan bir notanish odam oʻtirardi” [2] ushbu parchada esa inson hayotining oʻlchov birligi, yashagan davrni ifodalash uchun foydalangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida Said Ahmadning “Qorakoʻz majnun” hikoyasini badiiy til va semantik-stilistik qurilish jihatidan oʻrganishda kompleks filologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Deskriptiv (tavsifiy) metod orqali hikoyadagi lisoniy birliklar – oʻxshatish, metafora, sinonim, amtonim va omonimlar ajratib olindi va matndagi statik holati tavsiflandi. Yozuvchining individual uslubiga xos boʻlgan birliklar tizimli ravishda guruhlandi.

Lingvistik-stilistik tahlil yordamida har bir til birligining badiiy matndagi uslubiy vazifasi tahlil qilindi. Bunda:

- Semantik tahlil: troplarning mantiqiy asoslari, leksemalarning leksik va koʻchma maʼnolari orasidagi munosabat oʻrganildi.

- Kontekstual tahlil: til birliklarining maʼlum badiiy matndagi ekspressiv-emotsional boʻyogʻi va badiiy yuklamasi tahlil qilindi.

Leksik-semantik tasniflashda matndan saralab olingan materiallar semantik tahlil tamoyillariga koʻra quyidagi kateqoriyalarga ajratildi.

- Troplar: metafora, oʻxshatish, jonlantirish
- Leksik munosabatlar: sinonim, antonim, ononimlarning matnni boyitishdagi roʻli
- Lingvopoetik tahlil: til birliklarining qahramon harakterini ochib berishdagi estetik xizmati

Tadqiqot jarayonida “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” hamda soha mutahassislarining ilmiy darsliklaridan qiyosiy maʼlumotlar sifatida foydalanildi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish joizki, Said Ahmadning “Qorakoʻz majnun” hikoyasining semantik-stilistik oʻziga xosligi shundaki, adib oʻzbek tilining boy lisoniy imkoniyatlaridan foydalangan holda, asar qahramonlarining ruhoy olamini, voqealar silsilasini, hayvon qiyofasi orqali eng oliy insoniy fazilatlarini – vafo va sadoqatni koʻrsata olgan. Troplar va soʻzlarning munosabat shakllari badiiy matnning semantik-stilistik jihatdan boyligini oshirishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Muallif qoʻllagan troplar shunchaki bezak emas, balki asarning gʻoyaviy markazi boʻlgan “sodiqlik” tushunchasini vizuallashtirishga xizmat qilgan. Hikoyadagi sinonimlar nutqning bir xilligidan (monotonlik) qochishga va har bir harakatning nozik qirralarini ochishga yordam bergan. Antonimlar esa qahramonlarning ichki iztiroblari va quvonchlari oʻrtasidagi masofani koʻrsatishda muhim stilistik vosita hisoblanadi. Adibning xalqona leksikaga tayanishi,

sodda va samimiy dialoglar orqali falsafiy tushunchalarin ifodalashi uslubiy o‘ziga xoslikni belgilaydi. “Qorako‘z majnun” hikoyasi o‘zbek hikoyachiligida ko‘chimlar va stilistik vositalarning matnni shakllantirishdagi o‘rnini belgilab beruvchi muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S. Sultonova va boshqalar O‘zbek tili stilistikasi Toshkent 2009
2. Said Ahmad “Qorako‘z majnun” Tafakkur.net internet sayti
3. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” Izoh.uz internet sayti
4. A. Hojiyev Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T.: “Fan” 2002
5. H. Jamolxonov Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent “To‘lqin” 2005
6. E. Qilichev O‘zbek tilining amaliy stilistikasi Toshkent “O‘qituvchi” 1992
7. M.Yo‘ldoshev Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi Toshkent “Fan” 2008
8. N. Mahmudov Tilning mukammal tadqiq yo‘llarida... Toshkent Toshkent islom universiteti 2012
9. R. Sayfullayeva va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent 2009
10. X. Abdurahmonov So‘z estetikasi Toshkent “Fan” 1981